



AMIR TEMUR'S STRATEGY FOR FORMING INTERNATIONAL COALITIONS

Ulugbek Abdullayev

Associate Professor at Tashkent State University of Oriental Studies

Candidate of Historical Sciences

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Qadi Burhan al-Din, Barquq, Yildirim Bayazid, Asia Minor, Sivas, Golden Horde, Ottoman Empire.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This article examines the political situation in Central Asia and the Middle East at the end of the 14th century, with particular emphasis on the activities of the regional alliance formed against Amir Timur. Special attention is given to the political initiatives and diplomatic activities of Qadi Burhan al-Din Ahmad, the ruler of Kayseri–Sivas. The study analyzes his refusal to submit to Amir Timur, as well as his diplomatic correspondence with the Mamluk sultan Barquq, the Ottoman sultan Yıldırım Bayazid, and the Golden Horde. Based on the works of Egyptian historians Badr al-Din Mahmūd al-Aynī and Jalāl al-Dīn Ibn Taghribirdī, the article reveals the role of Qadi Burhan al-Din in the creation of the regional coalition opposing Timur. It also describes Timur's actions aimed at dismantling this alliance and his subsequent campaign against Sivas. The research highlights the political and diplomatic processes, interstate relations, and struggle for power in late 14th-century Asia Minor.

AMIR TEMURNING XALQARO KOALITSİYALAR TUZISH STRATEGIYASI

Ulug'bek Abdullayev

Tarix fanlari nomzodi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qozi Burhoniddin, Barquq, Yildirim Boyazid, Kichik Osiyo,

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV asr oxirlarida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq

Sivas, Oltin O'rda davlati, Usmonlilar sultonligi.

mintaqasidagi siyosiy vaziyat, xususan, Amir Temurga qarshi shakllangan mintaqaviy ittifoq faoliyati yoritilgan. Asosiy e'tibor Qaysari-Sivas hukmdori Qozi Burhoniddin Ahmadning siyosiy tashabbuslari va diplomatik faoliyatiga qaratilgan. Maqolada Qozi Burhoniddinning Amir Temurning bo'ysunish haqidagi taklifini rad etgani, elchilar almashinuvi, hamda Misr mamluklari sultoni Barquq, Usmonli sultoni Yildirim Boyazid va Oltin O'rda davlati o'rtasidagi diplomatik aloqalar tahlil qilinadi. Misr tarixchilari Badriddin Mahmud al-Ayniy va Jaloluddin ibn Tag'riberdi asarlarida bu ittifoq haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinib, Qozi Burhoniddinning Amir Temurga qarshi mintaqaviy birlashma tashkil etishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, Amir Temurning bu ittifoqni parchalash harakatlari va Sivasga yurishi haqida ham so'z yuritiladi. Maqola o'sha davrning siyosiy diplomatiyasi, mintaqaviy raqobat va ittifoqlarni shakllantirish jarayonini keng yoritadi.

СТРАТЕГИЯ АМИРА ТЕМУРА ПО СОЗДАНИЮ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОАЛИЦИЙ

Улугбек Абдуллаев

Доцент Ташкентского государственного университета востоковедения

Кандидат исторических наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Кади Бурхонуддин, Баркук, Йылдырым Баязид, Малая Азия, Сивас, Золотая Орда, Османская империя.

Аннотация: В данной статье рассматривается политическая ситуация в Центральной Азии и на Ближнем Востоке в конце XIV века, особенно деятельность регионального союза, сформировавшегося против Амира Тимура. Основное внимание уделено политическим инициативам и дипломатической деятельности правителя Кайсери-Сиваса Кади Бурхонуддина Ахмада. В статье анализируется его отказ подчиниться Амиру Тимуру, дипломатическая переписка с султаном мамлюков Баркуком, османским султаном Йылдырымом Баязидом и Золотой Ордой. На основе трудов египетских историков Бадр ад-Дина Махмуда аль-Айни и Джалал ад-Дина ибн Тагриберди раскрывается роль Кади Бурхонуддина в создании регионального союза против Тимура. Также описаны действия Тимура по

разрушению этого союза и его поход на Сивас. Статья освещает политико-дипломатические процессы, межгосударственные отношения и борьбу за власть в Малой Азии конца XIV века.

Kirish. XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq makonida yuz bergan chuqur geosiyosiy siljishlar xalqaro munosabatlarda yangi konfiguratsiyaning shakllanishiga zamin yaratdi. Bu davrda Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat nafaqat mintaqaviy, balki kengroq Yevrosiyo siyosiy tizimining ajralmas va faol subyektiga aylandi. Mazkur jarayonda sohibqironning diplomatik salohiyati, harbiy-strategik qarashlari hamda xalqaro koalitsiyalar tuzishdagi mahorati alohida o‘rin tutadi. Chunki A.Temur o‘zining siyosiy maqsadlarini faqat harbiy kuch bilan emas, balki keng ko‘lamli diplomatik tarmoqlar, ittifoqlar va strategik hamkorliklar orqali muvaffaqiyatli amalga oshira olgan.

Amir Temurning xalqaro koalitsiyalar tuzish strategiyasi uning tashqi siyosat doktrinasining eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, unda bir tomondan, raqib davlatlarning imkoniyatlarini cheklash, ikkinchi tomondan esa, o‘zining geosiyosiy ustunligini mustahkamlash maqsadlari uyg‘unlashgan edi. A.Temur davridagi diplomatik aloqalar tahlili ko‘rsatadiki, u salibchilar, Yevropa qirolliklari, Misr Mamluklari, Kichik Osiyo amirliklari, Eron va Oltin O‘rda hokimlari bilan muloqot olib borishda pragmatik yondashuvni qo‘llagan, vaziyatga mos ravishda koalitsion bloklar yaratgan va ularning siyosiy dinamikasidan ustalik bilan foydalanib kelgan.

Shuningdek, Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Ibn Arabshoh, Klavixov va boshqa muarrixlar asarlarida A.Temurning koalitsion siyosati xalqaro diplomatiya madaniyatiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgani, mintaqada kuchlar muvozanatini qayta shakllantirgan omil sifatida baholanishi ta‘kidlanadi. Bu strategiya o‘sha davrning murakkab geosiyosiy sharoitida davlat manfaatlarini himoya qilish va global miqyosdagi siyosiy jarayonlarga ta‘sir o‘tkazishning samarali vositasiga aylangan.

Qozi Burhoniddinning faol harakati va tashabbusi bilan mintaqada Amir Temurga qarshi kuchlar birlasha boshladi. Misr mamluklari sultoni Barquq bu harakatlarga qo‘shildi. Misr sultoni Barquqning shu yillarda Amir Temurga qarshi olib borgan faoliyati va o‘ziga yaqin hukmdorlar bilan diplomatik munosabatlari Misr tarixchilari tomonidan ancha keng yoritilgan. Jumladan, tarixchi Badriddin Mahmud al-Ayniy “Iqd al-jumon fi tarix ahl az-zamon (“Zamon ahli tarixida marvarid marjonlar”) nomli yirik asarida bu xususda (ayniqsa sulton Barquq bilan turk sultoni Yildirim Boyazid o‘rtasidagi aloqalarga doir) qimmatli ma‘lumotlar keltirilgan [4; 8-9].

Qozi Burhoniddin Ahmad Amir Temurning o‘ziga bo‘ysunish haqidagi taklifini rad qilgani va maktubning bir nusxasini Barquqqa, boshqa bir nusxasini esa Usmonli hukmdori Yildirim

Boyazidga yuborgani haqida yuqorida aytib o'tdik. Ibn Arabshohning yozishicha, u huzuriga kelgan Amir Temur elchisini o'ldirtiradi va bu harakatini Yildirim Boyazidga hamda sulton Barquqqa bildiradi [1]. Bundan tashqari, u o'sha hukmdorlarga yuborgan elchi va maktublarida o'ziga hamda boshqa davlat rahbarlariga ibrat bo'lishi uchun elchining harakatiga mos bir jazo berilishi shart bo'lganini aytib, yuzaga kelgan tahlikali holatga diqqatni tortadi va birgalikda dushmanga qarshi harakat qilishni taklif qiladi [1]. Amir Temur ham Kichik Osiyoda o'ziga qarshi tura oladigan yagona kuch Qozi Burhoniddin Ahmad ekanini tushungan edi. U Qaysari-Sivas hukmdori Qozi Burhoniddin haqidagi ma'lumotlarni ancha oldin qo'lga kiritgan bo'lsa kerak. Amir Temurning Kichik Osiyoni yaxshi biladigan bir kishidan faqat Qozi Burhoniddin Ahmadning dushmanlari va qo'shinlari sonini so'ragani bunga yetarli dalildir [8]. Bu ma'lumotga ko'ra, Qaysari-Sivas hukmdorining dushmani bo'lgan Arzinjon amiri Mutahhartanning 5000, Qaramon o'g'illarining 10000, Tojiddin Mahmud o'g'li Chalabiyning 6000, Tashan o'g'lining 1000, Bafra amirining 2000, mo'g'ullar bilan Diyorbakr va Shom turkmanlarining 2000 gacha otliq qo'shini bo'lgan. Bundan tashqari yana o'sha manbada Amir Temur buncha dushman qarshisida Qozi Burhoniddin Ahmad o'zini qanday qo'riqlay olganidan hayratlangani ham bayon etilgan [8].

Siyosiy hayotdagi voqealar rivoji shuni ko'rsatadiki, harbiy tayyorgarlikka kirishgan Barquq mintaqaviy ittifoq tuzish harakatlariga Qozi Burhoniddin Ahmadning ogohlantirishlaridan keyin rozi bo'ladi. Keyinchalik Yildirim Boyaziddan ham birlashishni xohlagan maktublar kela boshlagan edi. Misr mamluklari sultonligi bilan Qaysari-Sivas davlati orasida diplomatik aloqalar o'rnatiladi. Muzokaralar vaqtida qarshi turish uchun zarur bo'lgan tadbirlar haqida fikrlar almashingan. Barquq ijobiy fikr bildirganiga qaramay, Qozi Burhoniddinga ishonmagan edi. Bu ishonchsizlik tuyg'usi, oldindan mavjud kelishmovchiliklar ta'sirida bo'lsa kerak. Xolbuki, bu paytda Amir Temur tarafidan Qozi Burhoniddin Ahmadga yuborilgan yangi elchi Qutlug'shoh Sivasda tutib qolingani edi. Shu harakatning o'zi Qozi Burhoniddinning Amir Temurga qarshi turish azmida bo'lganini isbotlaydi. Nihoyat, Kichik Osiyoning sharqidagi yangi o'zgarishlarni tez idrok etgan Qozi Burhoniddin darhol yangi bir elchilik hay'ati tuzib Qohiraga yuboradi [8]. U Barquq saltanatiga tahlika yanada kuchayganini, Amir Temur maktubidagi ifodalarda yumshoqlik bo'lishiga qaramay, u bilan do'stlik va ittifoq o'rnatishni xohlamayotganini, bundan tashqari Barquqning mintaqaviy mudofaa bitimi tuzish tashabbusiga ijobiy javob berganini, Amir Temurga qarshi birlashish lozimligini yana bir bor eslatgandi. Biroz vaqt o'tgandan keyin Sivasga kelgan Misr elchisi Amir Temurga qarshi ittifoq va birlashma taklifini qabul etgan mamluk sultoni Barquqning maktubini keltiradi. Maktubda bo'lajak ittifoqning sog'lom ishonch asosida ish yuritishi lozimligi ta'kidlanib, Amir Temur elchisi Qutlug'shohni Qohiraga jo'natish taklif qilingani edi. Qozi Burhoniddin bu elchini Qohiraga yuborish xususida uzoq ikkilanadi. U joriy

diplomatik qonunlarni buzayotganligini va bunday qaltis harakatga yo'l qo'yib bo'lmashligini yaxshi bilar edi. Faqat u mintaqa tinchligi manfaatlarini o'ylab, Qutlug'shohni o'z elchisi bilan birgalikda Qohiraga yuborib, oradagi do'stlik rishtalarini yanada kuchaytirishga umid qiladi. Oltin O'rda davlatidan ham ittifoqqa qo'shilish haqidagi ijobiy javob keladi [8].

Bundan tashqari Yildirim Boyazid ham Qaysari-Sivas davlatining da'vati tufayli oradagi raqobatni vaqtincha unutib, ittifoqqa qo'shilishini Sivas saroyiga bildiradi va o'z elchisini Shomda turgan Barquq huzuriga yuboradi. Bu orada Barquq vositasi bilan Oltin O'rda ham qo'shilgan mintaqaviy ittifoqni kuchaytirish uchun ko'p siyosiy harakatlar qilinadi. Qozi Burhoniddin elchisini Suriyadagi mamluk sultoniga yo'llab, ittifoqqa sadoqatini yana bir bor ma'lum qiladi. Yaqin Sharq ustiga tushgan tahlika qarshisida bu davlatlar oradagi barcha siyosiy raqobat va kelishmovchiliklarni mintaqa tinchligi foydasi uchun bir chetga surib, birgalikda harakat qilishga ahd qilganliklariga doir ma'lumotlar Qozi Burhoniddin Ahmad devonida ham uchraydi [5].

Misr tarixchisi Jaloluddin Abul-Mahosin Yusuf ibn Tag'riberdi "An-Nujum az-Zahira fi mulki Misr val Qohira" ("Misr va Qohira saltanati haqida porloq yulduzlar") asarining 12-jildida 1394-yilda Misr sultoni Barquq Suriya (Shom)ning markazi Damashqqa tashrif buyurib, To'xtamishning Dashti Qipchoqdan kelgan elchilari va turk sultoni Boyazidning elchilarini qabul qilib, Amir Temurga qarshi birgalashib kurashish uchun ittifoq tuzganini ta'kidlaydi [6].

Amir Temur bu harbiy ittifoqni parchalash uchun qat'iy harakatga o'tadi. U Qozi Burhoniddin Ahmadni kuchli raqib ekanini tan olar edi. Mintaqaviy ittifoqning e'tiborli va kuchli bu a'zosi 1394-yili yoz oylarida Amir Temurning elchi vositasida yuborilgan yangi maktubini oladi. Maktubda elchilik vazifasi bilan Sivasga yuborilgan Qutlug'shohni qaytarib berish talab qilingan edi. Qozi Burhoniddin bu safar mintaqaviy ittifoqqa tayanib, Amir Temurning taklifini qat'iy rad etadi va ittifoqqa sadoqatini va Barquq bilan yakdil ekanligini amalda yana bir bor isbotlaydi.

Amir Temur har holda bu qat'iy javobdan keyin Kichik Osiyo ichkarisiga yurishga qaror bergan bo'lsa kerak. Chunki biroz vaqt o'tgach, Qozi Burhoniddin Ahmad Amir Temur Sharqiy Anatoliyaning kuchli qal'alaridan Erjini zabt etib, Sivas tomon harakatga o'tganini eshitdi va darhol urush tayyorgarligini boshlab yubordi. Bu haqda ittifoqchilarga xabar yuborildi. Tezda Mamluk sultonligiga qaram bo'lgan Malatiya noibi bu shaharni tashlab qochgani, Daranda va Devriga amirlari o'z joylarini tark etganliklari, atrofdagi ko'chmanchi turkman va mo'g'ullar tinch joylarga yashirinish uchun ko'chib ketganliklari haqidagi xabarlar yetib keldi. Bu borada manbalarda keng ma'lumotlar yo'q. Ayni zamonda Amir Temur o'ziga jiddiy to'siq bo'lgan Qaysari-Sivas davlatiga qarshi yurishga otlanganligi ma'lum. U Sivas tomonga hujum boshlaganida Arzinjon amiri Mutahhartan bilan Qaramon o'g'li Aloviddinbek ham urushga qo'shildi. Qaramon o'g'li Qirshaharni talon-taroj etdi va Develi elini yoqib, Qaysariyagacha kirib,

bogʻ va ekinzorlarni yanchib tashladi. Arzinjon amiri Mutahhartan esa qoʻlidan ketgan Ezdabir, Ses, Burtulish qalʼalarini qaytarib oldi [7].

Siyosiy va harbiy voqealar oʻzi istagandek boʻlayotgan bir paytda, Arzurumgacha kelgan Amir Temurning birdaniga yurishni toʻxtatgani va orqaga qaytishga tayyorgarlik koʻrayotganligi xabari tarqaladi. Bu xabar toʻgʻri edi. Chunki dastlab oʻz yurtiga bot-bot hujum uyushtirib turgan Toʻxtamishxonni bartaraf etish zarur edi. Shuning uchun u Toʻxtamishning oʻlkasiga qarab yurdi.

Bu harakat zaminida ham aslida chuqur oʻylangan va puxta rejalashtirilgan siyosiy hamda diplomatik tadbir yotadi. Amir Temur bir tomondan oʻz muxoliflarini chalgʻitib, ulardagi xushyorlikni susaytirishni moʻljallagan boʻlsa, ikkinchi tomondan – buni juda muhim – oʻz qoʻshinga orqadan hamla qilib, zarba berishga tayyor turgan va eng yomoni, Movarounnahr aholisining osoyishtaligiga muttasil xavf solayotgan Toʻxtamishning harbiy qudratini butunlay sindirib tashlashni moʻljallagan edi.

Amir Temurning orqaga qaytib, dastlab Gurjistonga, bu yerdan esa Toʻxtamish ustiga yurishi Kichik Osiyo, Yaqin Sharq ustidagi tahlikani vaqtinchalik boʻlsa-da, koʻtaradi. Ammo bu yerlardagi Amir Temurga tobe hududlarda hokimiyatni egallab turgan beklar xushyor tortib qoldilar. Chunki, Shom va Kichik Osiyoda Amir Temurga tobe boʻlganlarning harakatlari mintaqaviy mudofaa shartnomasi aʼzolariga maʼqul kelmasligi tabiiy edi. Shubhasiz, Amir Temurning hech kutilmaganda Kichik Osiyo va Shomga yana qaytish ehtimoliga qaramasdan, Mamluklar sultoni Barquq bilan Qaysariya-Sivas hukmdori Qozi Burhoniddin Ahmad darhol faol harakatga oʻtdilar. Barquq chegara noiblarining koʻpini oʻzgartirdi va Amir Temur bilan hamkorlikda Mamluklar sultonligiga qarshi harakatlarda boʻlgan, uni Shomga kirishga ragʻbatlantirgan arab qabilalarini taʼqib qila boshladi [6]. Bu orada Dulqodiroʻgʻli Sulibek ham Amir Temurga yaqinligi sababli Halab noibi tomonidan jazolandi. Bundan tashqari, Qaramon oʻgʻillarini Usmonlilarga qarshi tashlash siyosati ham olib borildi.

Kichik Osiyoda esa Qozi Burhoniddin Ahmad Anatoliyani qoʻlga olish uchun Amir Temurni qoʻllagan va ragʻbatlantirgan Qaramon oʻgʻillari bekligi bilan Arzinjon amirligiga qarshi faol harakatga kirishdi. U 1394-yilning kuzida Qaramon eliga yurish boshladi. Oqsaroy ustiga yuzlanib, bu shaharni urushmasdan oldi. U yerdan Qaramon askarlari himoyasida boʻlgan Zanjirli qalʼasi ustiga yurib, bu qalʼani ham qoʻlga kiritdi, qoʻmondonini esa asir tushirdi. Biroq qoʻl ostidagi boshqa qalʼalarni ham taslim etish sharti bilan uni kechirib, zarbof toʻn kiydirdi. Keyin esa Salima qalʼasiga qarab harakat qildi. Qalʼa xalqining qochganini koʻrib, u yerda himoyachilar qoldirdi va Oqsaroyga qaytdi. Bu yerdagi burjlarni va qalʼalarni taʼmirladi. Shu orada zarur tadbirlar bayon qilingan maktublarni qoʻl ostidagi mintaqalarga yuborib, hammaga adolatli va teng muomalada boʻlishini izhor etdi. U oʻz mintaqasida obodonlik ishlari bilan shugʻullana boshlaganda Qaramon oʻgʻli katta qoʻshin bilan Oqshahar chegarasiga yaqinlashganini eshitdi va

darhol unga qarshi harakatga o'tdi. Qozi Burhoniddin qo'shin tortib kelayotganini eshitgan Qaramon o'g'li zabt etish qiyin bo'lgan bir joyga – Hasan tog'iga yashirindi. Qozi Burhoniddin esa Qaramon o'g'li qo'shinlarini ta'qib qilib, Hasan tog'ini o'rab oldi. Qo'shin boshliqlari kengashga yig'ilib, Qaramon o'g'lini qal'adan chiqib jang qilishga majbur etish uchun Qaramon elida bosqin va vayrongarchiliklarni kuchaytirish lozim degan fikrni o'rta tashladilar. Qozi Burhoniddin bu fikrni ma'qul ko'rib, tog' hududlarida hujumga o'tdi. Qaramon askarlarining bir qismi asir tushib, boshliqlari qochib ketdi. Shunday qilib, osonlikcha g'alaba qozongan Qozi Burhoniddin Niyda ustiga hujum qildi. Qaramon o'g'li bu shaharni qo'riqlash uchun katta kuch tashladi. Qozi Burhoniddin yordam kelish ehtimoli bo'lgan yo'llarni to'sib qo'ydi va qo'shimcha kuchlar yetib kelmasdan Nigdeni o'rab olishga kirishdi. Shu payt Sivas askarlarining tarqoqligini sezgan qaramonliklar birdaniga qarshi hujumga o'tdilar. Qozi Burhoniddin zudlik bilan tarqoq askarlarini bir bayroq ostida to'plab, qarshi hujum bilan qaramonliklarni qochishga majbur etdi. Qaramon o'g'li Alovuddinbek Niyda qal'asiga chekindi. Qozi Burhoniddin ko'p harakat qilganiga qaramay bu qal'ani qo'lga ololmadi. Nihoyat, Qaramon o'g'lining sulh haqidagi taklifini qabul etib, Oqsaroyga qaytdi [1].

1394–95-yilda Qaysariyada qishlagan bu hukmdor bahor kelishi bilan Amir Temurning tarafdori va o'zining ashaddiy raqibi Mutahhartanga qarshi hujum boshladi. Bu yurish vaqtida misli ko'rilmagan darajada bosqin va vayronagarchilik qilib, Azdabir, Sis, Burtulush kabi uchta katta qal'ani qo'lga kiritib, Sivasga qaytdi. Yo'lda amir Mutahhartanning qarshi hujumga o'tish uchun tayyorgarlik ko'rayotgani xabarini oldi. Sis va Burtulush qal'alari qo'mondonlari xiyonat qilib, qal'alarni Arzinjon amiriga qaytarib berganliklari ma'lum bo'ldi. Xoji Yusuf qo'mondonligida bir guruh qo'shinni shu tomonga yuborib, o'zi orqa tarafdin jang maydoniga yo'naldi. Mutahhartan bu safar ham urushga kirmasdan orqaga chekindi. Mana shu voqealar ro'y berayotgan paytda Amir Temur Kichik Osiyo va Suriyadagi o'z tobelariga qarshi turgan “Mudofaa ittifoqi” a'zolaridan Barquq va Qozi Burhoniddin Ahmadning siyosatini xushyorlik bilan kuzatib turardi.

Amir Temur Qozi Burhoniddin Ahmad, Barquq, Yildirim Boyazid va To'xtamish ittifoqiga zarba berib, Oltin O'rdani mag'lub etganidan keyin, 1395-yilning o'rtalarida, Shirvondagi Samur shahri bo'yidan Yildirim Boyazidga yozgan maktubida bu hukmdorlarga g'azabini ochiq bayon etadi. Shu davr tarixini o'rganish uchun muhim bo'lgan bu xat Amir Temur bilan Yildirim Boyazid o'rtasidagi ikkinchi maktubdir. Unda Sohibqiron o'zaro do'stlik va savdo aloqalari o'rnatilishi va davom etishi kerakligini, elchilar almashish haqidagi istaklarini bildiradi [2]. Maktub Sohibqiron yuritgan diplomatik siyosatni o'rganish jihatidan ham nihoyatda e'tiborlidir. U avvalgi aqidalariga sodiq qolib, urush va muxolifat o'rniga do'stlik va o'zaro hamkorlikda yashash afzal ekanligini bayon qilib, sultonni shunga da'vat etadi, uni o'z haddidan oshib, ortiqcha g'ururga berilmaslikka

chaqiradi: “Va sening aslu nasabing kemachi turkmanlarga yetar va bu bizga ravshan turur, muhtoji bayon emas. Gururni boshingdin chiqorg’il. Bu choqqachakim sening viloyatingga ta’arruz qilmaduk, jihati bu erdikim, eshitur erdukkim, sen farang kofirlari bilan g’azog’a mashg’ulsen. Va agar biz ul sori borsak, musulmonlar tashvishda bo’lurlar va kofirlar shodmon bo’lg’aylar. Zinhor-zinhorkim atolarining tariqatlarini saqlag’il va ayog’ingni o’z haddingdin uzotmag’il, o’zungga mag’rur bo’lmag’il. Vassalom” [3]. Ko’ramizki, Sohibqiron musulmonlarga tashvish yetishini, ya’ni aholining tinchligi va osoyishtaligini buzishni xohlamaydi. Bu holat, yuqorida ta’kidlaganimizdek, Amir Temurning Yaqin Sharq siyosati va diplomatiyasidagi asosiy tayanch nuqta hisoblanadi.

Sulton Boyazid maktubdagi do’stona da’vat va nasihatlariga quloq solmaydi. Aksincha, u takabburlik bilan javob qaytaradi: “Muddati tururkim, ko’nglumda tururkim aning bila urushqaybiz. Emdi behad buldumkim, cherikim bila anga borg’aymen. Va agar ul beri kelmasa, Tabriz va Sultoniyagacha borg’aymen” [3]. Ayni paytda Amir Temurning ittifoq a’zolarini parchalashga qaratilgan harakatlari bu paytda yaxshi natija bermaydi, aksincha raqiblari o’rtasidagi jipslikni kuchaytiradi.

Qozi Burhoniddin bu davrda Barquq bilan aloqalarini mustahkamlash bilan birga Amir Temurga tobe Arzinjon amirligi va Qaramon o’g’illari yerlariga hujumlarini kuchaytiradi. Ayni zamonda u “Mudofaa ittifoqi”ga a’zo bo’lgan Usmonlilarga qarshi hech qanday urush harakatlari olib bormaydi. Bu holat 1398-yilning yozida Qozi Burhoniddin Ahmad Qora uylik Usmon bek tarafidan o’ldirilguncha davom etadi.

1394-yil avgust oyida Avnik qal’asini zabt etib, Arzirumgacha kelgan Amir Temur To’xtamishxonga qarshi jang qilish uchun orqaga qaytdi. Chunki “Mudofaa ittifoqi”ga a’zo bo’lgan To’xtamish Amir Temurning orqa tomonida harbiy harakatlarni boshlagan edi. Avnikdagi yurishlardan bir oz vaqt o’tgach poytaxt Samarqanddan vazir amir Xoji Sayfiddin tashrif buyuradi. U Sohibqironiga Turondagi ichki vaziyat haqida keng ma’lumot beradi. Har holda to’rtlik ittifoqiga kirgan To’xtamishxonning xatti-harakatlari ushbu uchrashuvda jiddiy muhokama qilinganiga shubha yo’q [2]. 1391-yildagi mag’lubiyatdan keyin qisqa muddatda o’zini tiklab, qaytadan mustahkamlanib olgan To’xtamish mintaqaviy ittifoqqa qo’shilib, Shirvon atroflarida hujumga o’tgan edi. Bu harakat ittifoqchilar Amir Temur qo’shinlarini qurshovda mag’lub etishni rejalashtirganini ochiq ko’rsatib turibdi. Buni yaxshi anglagan Amir Temur To’xtamishni butunlay bartaraf etishga qaror qiladi. Shu tufayli u Kichik Osiyo va Suriya yurishlarini to’xtatib, Dashti Qipchoqqa zarba berishga tayyorgarlik ko’ra boshladi. Orqadagi dushmanlarni butunlay yo’qotmasdan turib oldinga harakat qilmaslikka odatlangan Sohibqironning bunday qarorga kelishi tabiiy edi.

Turk olimi Yashar Yujelning qayd etishicha, Sohibqironning to'satdan Samarqandga qaytishiga to'rtta muhim sabab bor edi:

1. U Kichik Osiyo hududidagi harakatlari davomida Qaysari-Sivas hukmdori Qozi Burhoniddinning kuchli raqib ekanligini ko'rdi. Usmonli davlatiga hujum qilishdan oldin uni bartaraf etish lozim edi.

2. Bu kuchli hukmdorga qarshi harakat qilsa, janubdan Barquq, shimoldan hali to'la mag'lub bo'lmagan To'xtamish qaytadan qo'shin to'plab, o'ziga qarshi jang boshlashi ehtimoldan uzoq emas edi. Agar Suriyaga qarshi yuradigan bo'lsa, Qozi Burhoniddin Ahmad va Boyazid birlashib, unga zarba berishi mumkin edi. Tajribali jahongir bu aniq havfni sezmasligi mumkin emasdi.

3. Kichik Osiyo va Suriyani keyinchalik yaxshi dam olgan kuchli qo'shin bilan zabt etishga u qat'iy ishonar, raqiblarini yakkama-yakka yo'q qilishni esa avvaldan rejalashtirib qo'ygan edi.

4. Saltanat poytaxti Samarqanddan boshlab butun mamlakatda yuzaga kelgan boshqaruv tizimidagi ayrim nizolarni tez bartaraf etish lozim edi [8].

Amir Temurning mohir siyosatchi ekanligi, o'tkir sarkardalik dahosi Kichik Osiyoga munosabatda yaqqol namoyon bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, Sohibqiron bu yerdagi harbiy-siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilgan edi. Sohibqironning sarkardalik faoliyati va Yaqin Sharqqa bog'liq tashqi siyosatida bu taktika yetakchi o'rin tutishini unutmaslik lozim. Ikkinchi sabab shu bilan izohlanadiki, 1391-yildagi Qunduzcha jangida yengilgan To'xtamish Amir Temurning 1393–94-yillarda Kavkaz, Arab Iroqi va Kichik Osiyoga hujumlari vaqtida qaytadan kuch to'plagandi. Bundan tashqari u mamluk sultoni Barquqning da'vati bilan mintaqaviy ittifoqqa qo'shilgan hamda Amir Temur Kichik Osiyo ichkarisiga hujum qilish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan bir paytda Darbanddan o'tib, Shirvondagi shahar va qishloqlarni talon-taroj qilganini unutib bo'lmasdi. Terek jangida mag'lubiyatga uchrab, davlati barbod bo'lganiga qaramay, To'xtamish qochib ketgan edi. Bepoyon hududlarga ega bo'lgan bu makkor raqib, yangi kuch to'plab, orqa tarafdin takror hujumga o'tish payida edi.

Amir Temur Eron, Gruziya va Arab Iroqi, Kichik Osiyo va Dashti Qipchoqning o'z ichiga olgan mintaqada olib borilgan harakatlar paytida poytaxt Samarqanddan uzoq vaqt ajralib qolgandi. Sharqiy Anatoliya yurishidan avval Avnikka kelgan vazir amir Hoji Sayfiddin Bahodir saltanatdagi ahvol haqida muhim xabarlar keltirganini aytib o'tdik. Bu xabarlarni jiddiy tahlil qilgan Amir Temurning 1394-yil sentyabrida To'xtamishga qarshi harakatlar paytida ham, Kichik Osiyo ostonasidan qaytib, Gruziyani o'ziga bo'ysundirganda va undan keyin ham Movarounnahrda boshqaruv zaiflashgani sababli tug'ilgan muammolarni yechishga intilganligini ko'ramiz. U o'g'li Shohruxni Samarqandga jo'natar ekan, xalqqa adolatli bo'lishni, idora xodimlari raiyatga yaxshi xizmat qilishi lozimligini, Turon zaminida nojo'ya ishlarga xotima berishni talab qilgan edi [3]. Chunki davlat markazidagiga o'xshash hodisalar yaqin hududlarda

ham sodir bo'lmogda edi. Misol uchun qayta zabt etilgan Eronda Dashti Qipchoqqa yurish arafasida qo'zg'olonlar boshlangandi. Nihoyat, Amir Temurning vaqtincha orqaga qaytishga undagan to'rtinchi sabab ko'p yillik safarda toliqqan qo'shinga uzoq muddatli xordiq berish va yaxshi dam olgan baquvvat qo'shin bilan Kichik Osiyo va Mamluklar yerlarini oson qo'lga kiritishni mo'ljallaganidir. Haqiqatdan ham bu mulohazani isbotlaydigan dalillar mavjud. Misol uchun Terek jangidan keyingi harbiy yurishlarda tezkor topshiriqlar va buyruqlarni bajarishda armiya qo'mondonlari va askarlarda jangovarlik susayganligi hamda toliqish alomati sezilgan edi. Bundan tashqari boshqa bir jihat ham mavjud. Amir Temur saltanatiga majburan kiritilgan ayrim hududlarda xalq iqtisodiy bo'ysunmaslik yo'lini tuta boshlagandi. Chunki Sohibqironni o'z hududlaridan qurol kuchi bilan chiqara olmasliklarini anglab yetgan mahalliy xalq sun'iy qiyinchiliklar yaratib, movarounnahrliklarni o'z hududlarini tark etishga majbur qilish payida edi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Qozi Burhoniddin Ahmad faol siyosiy arbob sifatida XIV asr oxiri – XV asr boshlarida Yaqin Sharq va Kichik Osiyo mintaqasidagi murakkab geosiyosiy jarayonlarda muhim rol o'ynadi. Uning tashabbusi va diplomatik mahorati tufayli Amir Temurga qarshi Misr Mamluk sultonligi, Usmonlilar davlati hamda Oltin O'rda o'rtasida keng qamrovli harbiy-siyosiy ittifoq shakllandi. Bu harakatlar o'z davrida mintaqadagi kuchlar muvozanatini saqlashga, shuningdek, Temur saltanatining g'arbga kengayishiga qarshi muvofiqlashtirilgan siyosiy qarshilikni yuzaga keltirishga qaratilgan edi.

Qozi Burhoniddinning diplomatik faoliyati o'zaro raqobat va ishonchsizlik sharoitida ham mintaqaviy birdamlik g'oyasini ilgari surish, turli siyosiy kuchlarni umumiy tahlikaga qarshi birlashtirish bilan ajralib turadi. U o'z manfaatidan ko'ra mintaqa barqarorligi va siyosiy muvozanatini ustun qo'ygan davlat arbobi sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi.

Shuningdek, mazkur davr voqealari Amir Temur siyosatining kuchi va ta'siri qanchalik keng miqyosda bo'lganini, unga qarshi tuzilgan har qanday ittifoq oxir-oqibatda mustahkam strategik asosga ega bo'lmagani uchun baribir muvaffaqiyatsiz yakunlanganini ham ko'rsatadi. Shu bilan birga, Qozi Burhoniddin shaxsiy jasorati, siyosiy donoligi va diplomatik faolligi bilan o'sha davr Yaqin Sharq tarixida iz qoldirgan yetakchilardan biri sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (Temur tarixida taqdir ajoyibotlari) /So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni filologiya fanlari nomzodi U.Uvatov tayyorlagan. Mas'ul muharrir A.O'rinboyev. I-kitob. Toshkent, "Mehnat" 1992. B. 328. II-kitob. Toshkent, "Mehnat" 1992.

2. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Fors tilidan Yu. Hakimjonov tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi A.O'rinboev. Toshkent, "O'zbekiston" 1996. – B. 207;

3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Tarjimon Muhammad Ali Buxoriy. So‘zboshi, tabdil, izohlar va ko‘rsatkichlar mualliflari: Ashraf Ahmad, Haydarbek Bobobekov. Toshkent, “Sharq” nashriyot-matbaa konçerni 1997. – B. 233;
4. Uvatov U. Sohibqiron arab muarrihlari nigohida. Toshkent, “Sharq” NMK, 1997. B. 7-149.
5. Luttrell, A., "Timur's Dominican Envoy", In C. Heywood and C. Imber (eds.), Studies in Ottoman History in Honor of Professor V.L. Menage, Istanbul, 1994, p. 209.
6. عادل هلال، العلاقات بين المغول وأوروبا وأثرها على العالم الإسلامي، دار عين للدراسات الإنسانية والاجتماعية، القاهرة، 1997م؛
7. ابن تنكربردى. النجوم الظاهرة فى ملوك مصر والقاهرة. القاهرة، ١٩٥٦، جزء-١٢، ص-٢٢٣.
8. Yasar Yucel. Timurun Ortadogu-Anadolu seferleri ba sonuclari (1393-1402). Ankara, 1989. B. 1-138.